



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi

___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yili 10-sinf
o'zbek tili fanidan II chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 10-sinf o‘zbek tili fanidan II chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Jism va ruhiyat Temperament	1		
2.	Psixogigiyena	1		
3.	Mening temperamentim	1		
4.	Kamalak	1		
5.	Rang-barang olam	1		
6.	Ijtimoiy odoblar	1		
7.	Fazilat	1		
8.	Salomatlik va gigiyena	1		
9.	Nazorat ishi-3	1		
10.	Takrorlash	1		
11.	Sog‘liq uchun foydali mahsulotlar	1		
12.	Talab va taklif	1		
13.	Mening kunim	1		
14.	Sanitariya	1		
15.	Tabobat	1		
16.	Sog‘lom taomlar	1		
17.	“Avitsenna usuli”	1		
18.	Bu qiziq!	1		
19.	Takrorlash	1		
20.	Nazorat ishi-4	1		
21.	Mustahkamlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jism va ruhiyat Temperament

Maqsadlar:

- a) ta'limiy: o'zbek tilida erkin muloqotga kirishishni o'rgatish va bilimlarini yanada oshirish. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish. Yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida tushuncha berish.
- b) tarbiyaviy: Nutqiy mavzularni izchil va oson o'zlashtirishi, mavzu doirasida unga xos nutqiy qoliplarni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, dialog, mashqlar va uy vazifasini bajarishni o'rgatish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilar nutqini yuqori darajada o'stirish, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

Savollarga javob bering.

1. Sizni atrofdagilar tanqid qilishsa yoki maqtashsa, qanday qabul qilasiz?
2. Do'stlaringiz orasida arzimagan sabab bilan tez xafa bo'ladigan yoki yig'lab yuboradigan kishilar bormi?

O'qing.

"Temperament" so'zi lotinchadan olingan. Temperamentning ilmiy asosini Hippokrat yaratgan, turlarini ham Hippokrat nomlagan. Temperamentning to'rtta turi mavjud bo'lib, ular: xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolikdir. Quyida temperament turlarining ajoyib xususiyatlari bilan tanishasiz: Xoleriklar kuchli, chaqqon odamlardir. Ularda vazminlik yo'q, o'ziga xos xususiyati jizzakilik va beqarorlik sanaladi. Xoleriklar faol, ishchan va to'xtovsiz reaksiyalidir insonlardir. Ular bir maromda ishlay olishmaydi: goh g'ayrat bilan, goh imillab ishlashadi. Sangviniklar kun tartibiga tez-tez amal qilgan holda qarorlar qabul qilishadi. Ularning tezlik, ko'tarinkilik bilan bir ishdan boshqasiga o'tishlari oson. Ular xoleriklar kabi bir necha qarorlarni qabul qiladilar, flegmatiklardek tez va aniq bajariladigan rejalarni tuzadilar. Flegmatiklar uchun eng muhimi xotirjamlikdir. Ular tinch va sokin hayotni yoqtiradilar. Bunda doimiy ish-harakat ketma-ket bajarilib borishi, kun tartibi va har kunlik ishlar bir maromda ketishi zarur. Har kuni bir xil vaqtda uyg'onish, bir xil vaqtda ovqatlanish, vazifalarni bir xil vaqtda bajarib topshirish flegmatiklarga xos. Melanxoliklar g'amgin, qat'iyatsiz va ma'yus kishilardir. Salga charchash, biror ishga yetarlicha jur'at etmaslik, o'z fikrlari va istaklarini qondira olmaslik ularga xosdir. Melanxoliklar ko'pincha arzimagan qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar: ularga qarshi kurashdan voz kechadilar.

O'ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: xoleriklar, temperament, melanxoliklar, flegmatiklar, Hippokrat, sangviniklar.

1. _____ — ilmni tez va osongina o'zlashtiradigan, muomalada ko'proq shirinsuxan, gapdon

hisoblanuvchi temperament vakillari.

2. _____ — lotincha “mutanosiblik” ma’nosini bildiruvchi so‘z.

3. _____ — temperament haqidagi nazariyani yaratgan shaxs.

4. _____ — nutqi sekin, zaif, ba’zan pichirlash darajasiga tushadigan temperament vakillari.

5. _____ — vujudga kelgan hayot tartibiga, ishdagi sistemaga qat’iy rioya qiladigan temperament turi.

6. _____ — jahli tez temperament egasi.

O‘ylang va toping. Yozing..

Namuna. Biz ertaga oilamiz bilan sayohatga jo‘namoqchimiz..

1. Biz ertaga oilamiz bilan sayohatga _____.

a) ketmoqchiman; b) bormoqchilar; d) otlanmoqchi; e) jo‘namoqchimiz.

2. Men ta’ilda buvimnikiga _____.

a) otlanmoqchi; b) bormoqchisan; d) ketmoqchiman; e) jo‘namoqchimiz.

3. Ular uzoq safarga _____.

a) bormoqchisiz; b) otlanmoqchilar; d) ketmoqchiman; e) jo‘namoqchimiz.

4. Sen nima maqsadda Buyuk Britaniyaga _____.



a) bormoqchisan; b) otlanmoqchi; d) ketmoqchiman; e) jo‘namoqchimiz.

O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Teatr oldida uchrashmoqchimiz

1. Avtobusdan	A) uchrashmoqchimiz
2. Vazifani	B) chizmoqchiman
3. Mehmonxonada	D) chiqmoqchisiz
4. Sayohatga	E) tushmoqchimiz
5. Mashinani	F) bajarmoqchisan
6. Qalam bilan	G) bormoqchiman
7. Uydan	H) haydamoqchi
8. Teatr oldida _____	I) qolmoqchiman

6 Tinglang.



III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Insonda yoshi ulg‘aygani sari yuzaga chiqadigan xarakter-xususiyatlarni temperament bilan izohlash mumkin.

2. Hippokrat odam xulq-atvori, tana tuzilishi, organizmning bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oyaga asos solgan.

3. Xoleriklar deyarli kasallikka chalinmaydi.

4. Oliy nerv faoliyati, temperament tiplarining aniq tasnifi bilan fransuz olimi shug‘ullangan.

5. Sangviniklar kuchsiz, kamharakat tip sanaladi.

6. Temperament lotincha “temperantum” so‘zidan olingan bo‘lib, “mutanosiblik” degan

ma'noni bildiradi.

7. Flegmatiklar kamgap, nutqi sekin, ba'zan past ovozda gapiradigan xotirjam insonlardir.

8. Temperament turlari vakillari orasida sangviniklar eng yaxshilari bo'lsa, melanxoliklareng yomonlari sanaladi.

IV.O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e'lon qilish:

Sizda xolerikka xos xususiyatlar bormi? Xolerikka xos bo'lmagan xususiyatlaringiz-chi? Ularni yozing.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Psixogigiyena

Maqsadlar:

- a) ta'limiy: o'zbek tilida erkin muloqotga kirishishni o'rgatish va bilimlarini yanada oshirish. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish. Yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida tushuncha berish.
- b) tarbiyaviy: Nutqiy mavzularni izchil va oson o'zlashtirishi, mavzu doirasida unga xos nutqiy qoliplarni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, dialog, mashqlar va uy vazifasini bajarishni o'rgatish.
- d) rivojlantiruvchi: o'quvchilar nutqini yuqori darajada o'stirish, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

O'qing.



Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Sinfingizda kimlarning temperamentini o'rganganlaringiz asosida aytib bera olasiz?
2. Otello, shum bola, Zaynab, Harri Potterning do'sti Ron, "Shaytanat"dagi Asadbek kabi asar qahramonlarining temperamentlarini tahlil qiling.

Tinglang. Yozing

Namuna. 1) vazmin; 2) kamharakatlik; 3) ...


Flegmatiklar sangviniklarga qaraganda birmuncha (1) _____ kishilardir. Ularda shoshmaslik, vazminlik ancha barqaror bo'ladi, murakkab hayotiy vaziyatlarda (2) _____ kuzatilsa-da, qo'yilgan maqsadga erishishda birmuncha barqaror, (3) _____ va dadil bo'lishadi. Bilimlarni sekinroq o'zlashtirsalar ham, lekin (4) _____ egallaydilar.

Xoleriklar kuchli, (5) _____, vazmin bo'lmagan odamlardir. Ularning o'ziga xos xususiyati (6) _____

_____ va beqarorlik sanaladi. Xoleriklar faol, (7) _____ va to'xtovsiz reaksiyali odamlardir. Ular bir maromda ishlay olishmaydi: goh g'ayrat bilan, goh (8) _____ ishlashadi. Melanxoliklar (9) _____, jur'atsiz va ma'yus kishilardir. Salga (10) _____, biror ishga yetarlicha jur'at etmaslik, o'z (11) _____ va istaklarini qondira olmaslik ular uchun xosdir. Melanxoliklar ko'pincha (12) _____ qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydilar: ularga qarshi (13) _____ voz kechadilar. (14) _____ chaqqon, tirishqoq, (15) _____, ta'sirchan kishilardir. Ular tevarak-atrofga tez (16) _____. Ular bilimni tez va (17) _____ o'zlashtirsalar-da, hamma vaqt ham (18) _____ egallamaydilar.

O'qing. Savollarga javob bering

Ibn Sinoning fikriga ko'ra, kasalliklar bir-biriga o'xshash bo'lsa ham, har bir bemorni davolashda uni diqqat bilan o'rganish, oilasi va yashash sharoiti bilan tanishish o'ta muhim. Hozirgi davrda bu "psixogigiyena" deb ataladi. Ibn Sino psixoprofilaktika bilan ham shug'ullangan. Kasalliklarning oldini olishda tarbiyaning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. "Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak", — degan edi Ibn Sino. Bolani qo'rqq, g'amgin yoki juda erka qilib o'stirmaslik kerak. Otaona bola nimani xohlayotganini doimo sezishi va o'sha narsani bolaga yetkazib berishga harakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishi zarur. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zehni o'tkir qiladi, tanasini sog'lom o'stiradi. Ibn Sino kasalliklarning kelib chiqishida asab tizimining ahamiyati katta deb bilgan. G'azab, qo'rquv, qattiq siqilishlar organizmni holsizlantirib, turli kasalliklarga moyil qilib qo'yadi. Buni quyidagi tajriba orqali isbotlab bergan. Ibn Sino bitta qo'yni oddiy sharoitda, ikkinchisini esa qafasda saqlab, ikkalasini ham bir xil boqqan. Qafasdagi qo'yning atrofida bo'ri aylanib yurgan. Bir-ikki kundan so'ng bo'ri ko'rinib turgan qafasdagi qo'y yem yemay qo'yadi va holdan toyib o'ladi. Ibn Sino qo'yning o'limiga ruhiy zo'riqish va buning natijasida organizmning holdan toyishi sabab bo'lgan, deb xulosa chiqargan.



1. Kasalliklarning kelib chiqishi nimalarga bog'liq?
2. G'azab, qo'rquv, siqilish haqida Ibn Sino qanday fikr bildirgan?
3. Ibn Sino qo'ylarda tajriba o'tkazib, nimani isbotlagan?

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'ylang va toping. Yozing.

Namuna. bajaraman / berilgan / men / har / uyga / kuni / vazifalarni Men uyga berilgan vazifalarni har kuni bajaraman.

1. doimo / u / olib / fotoapparatini / boradi / sayohatga
2. sinfxonamizni / kuni / har / tozalaymiz / biz / ertalab
3. erta / maktabga / tongdan / oladilar / o'quvchilar / yo'l
4. aylanadi / Yer / atrofida / Quyosh / o'qi / va / o'z / atrofida
5. ingliz / o'tkaziladi / ikki / marta / tili / imtihoni / yilda

IV. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e'lon qilish:

Boraman, uchrashaman, taqdim qilaman, gaplashaman fe'llari ishtirokida matn tuzing.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti *orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

45 listdan iborat o‘zbek tili fanidan 10-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega
bo‘ling!***

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO‘ ish hujjatlari**
- 11.O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars
ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**

